

Fantastik Asarlarda Qahramon Ruhiyatining O'rganilishi

Fazyullayeva Dilfuzaxon G'ulomjon qizi¹

Annotatsiya: ushbu maqola zamonaviy jahon adabiyotida fantastic janrda yaratilgan asarlarda qahramon ruhiyatining yoritilish uslublari ko'riladi. Bunda amerika adabiyotida ilmiy fantastic janrning Shekspiri deb e'tirof etilgan Ayzek Azimov va o'zbek adabiyotining yorqin namoyondalaridan biri bo'lmish Hojiakbar Shayxovning ijodiga nazar tashlanadi. Yozuvchilarning mahoratlarini o'z qahramonlarining ichki olamini ko'rsatishda foydalangan usullari orqali maqsadga qay darajada erishilgani ko'riladi.

Kalit So'zlar: badiiy psixologizm, bevosita va bilvosita tahlil, adabiy portret, peyzaj, galyutsinatsiya, dinamik, analitik va tipologik prinsiplar, monolog, dialog.

KIRISH

Badiiy adabiyotda insonning mohiyatini anglash, uning ichki kechinmalari, his qilayotgan tuyg'ularini o'quvchiga yetkazib berish eng asosiy omillardan biri hisoblanib kelmoqda. Shu o'rinda aytish joizki, insonning ichki ya'ni ruhiy olamini tasvirlash adabiyotda hech eskirmaydigan, asosiy masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Negaki, inson barcha mavjudotlardan ustun, aziz qilib yaratilgan, shu sababli ham insonning psixologizmini tasvirlash badiiy adabiyotda muhim omil sifatida qaraladi.

Jahon adabiyotida, shu jumladan, o'zbek adabiyotida ham badiiy psixologizm muammosi atroflicha o'rganilgan. Badiiy psixologizm – “badiiy asarda to'laqonli inson obrazini yaratishning muhim vositalaridan biri; personaj ruhiyatining ochib berilishi, xatti harakatlari va gap-so'zlarining psixologik jihatdan asoslanishi, shu maqsadlarga xizmat qiluvchi usul va vositalarning jami” [1]. Asardagi badiiy obraz xarakterini chuqur va to'liq ochib berishda muallif badiiy tasvir vositalari bilan qatorda psixologik tasvir vositalaridan ham foydalandi. Asarda muallif tomonidan qahramon ichki dunyosiga chuqur kirib borish, obraz ruhiy olamining batafsil tavsifi, qalb kechinmalarining tasviri – “badiiy psixologizm” deb yuritiladi [2].

ASOSIY QISM

Mavzu o'rganilishining asosiy mohiyati botiniy olamni tadqiq etishga bo'lgan ehtiyojdir. Ayniqsa so'nggi yillarda botiniy olamning murakkabligi, ruhiy holatning tez-tez almashib turishi falsafa, psixologiya, adabiyotshunoslik fanlarining tadqiqot obyektiga aylandi.

Istalgan janrdagi badiiy asarda yozuvchi o'z qahramonlarining tuyg'u, iztiroblari, ichki kechinmalarini tasvirlash orqali uni kitobxoniga tanishtiradi. Ba'zi tadqiqotchilar psixologizmini inson ichki dunyosini kashf etuvchi usul deb hisoblashmaydi. Shu bois, qahramon ruhiy olamining tadqiqida psixologizm usul emas, balki badiiy adabiyotda ruhiyatning o'ziga xos tasviri deb qabul qilinadi[3]. Yozuvchi qahramonning ichki olamini tasvirlashda, uning qalbini nechog'lik chuqur anglatganiga qarab baholanadi. Psixologik tahlilni xarakterlarni tasvirlashning ichki (monolog, xotira, assosiasialar va tasavvur obrazlari) va tashqi (mimika va psixikaga doir boshqa tashqi ko'rinish holatlarining hissiy o'ziga xosligini namoyon qilish formalariga ajratish mumkin.

Psixologizm bevosita muallif mulohazasi yoki qahramonlarning o'z-o'zini tahlil qilishi shaklida va yoki bilvosita qahramonlar mimikasi, xatti-harakatini ko'rsatish shaklida amalga oshiriladi. [4]

¹ O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti mustaqil tadqiqotchisi, Toshkent viloyati Toshkent tumani 6-maktab ingliz tili o'qituvchisi



Ayni bir xil psixologik holatni turli xil ko'rinishda tasvirlash mumkin: a) bevosita – yozuvchi qahramon qalbiga, ongiga, shuuriga kirib boradi. Bunda muallif qahramonning og'zaki, yozma yoki ichki nutqi – monologidan, tushidan foydalanishi mumkin; b) bilvosita – muallif qahramonning ichki olamini berishda tashqi omillar: imo-ishora, xatti-harakat, ma'noli imo-ishora kabilardan ham foydalanadi.

Odatda ichki holat birinchi yoki uchinchi shaxs tilidan tasvirlanadi. Ichki holat birinchi shaxs nomidan ifodalanganda istig'for etishni eslatadi. Bu ayniqsa G'arbiy Yevropa adabiyotida sentimentalizm keng avj olgan davrga xos bo'lib, epistolyar janr, maktub, esdalik, tush va ichki monologlarda o'z aksini topgan. N.Shodiev "Ruhiyat rassomi" risolasida "qalb dialektikasi"ning (N.G.Chernishevskiy bu termini adabiy qahramon his va kechinmalarining paydo bo'lishi va rivojlanishi jarayoni, deb ta'riflaydi) asosiy poetik vositalari – ichki monolog, nutqiy xarakteristika, psixologik portret, hislarning tashqi ekspressiyasi, gallyutsinatsiya, tush, psixologik timsollar va ularning turli xususiyatlarini tahlil qiladi. [5]

Shu o'rinda badiiy psixologizm tushunchasining maydonga kelishi va qamrovining kengayishiga A.Alimuhamedov, H.Umurov, D.Quronov kabi olimlarning olib borgan muhim tadqiqotlari sabab.[6] Psixologizm qahramonning ichki dunyosiga chuqur kirib borish atroflicha, keng tasvir, uning qalbidagi turli holatlarni tahlil etish, nozik hissiyot va kechinmalarga e'tibor berish kabi masalalar birlamchi o'rinda turadi.

Fantastik adabiyotda qahramon ruhiyatining o'rganilishi o'ziga xos va qiziqarli usullarda amalga oshiriladi. Bu janr, fantastik elementlar orqali inson ruhiyatini chuqurroq anglash va turli psixologik holatlar, hissiyotlar hamda ichki kurashlarni yoritishga imkon beradi.

➤ **Ichki kurash va o'sish:**

✓ Ko'plab fantastik asarlarda qahramonlar ichki kurashlar va o'zini topish jarayonidan o'tadilar. Masalan, Ayzek Azimovning "I, Robot" asarida robotlar o'zlarining insoniylik va axloqiy masalalarni tushunishlari orqali rivojlanadi.

➤ **Identity (shaxs) va o'zlikni anglash:**

✓ Fantastik asarlarda qahramonlar ko'pincha o'z identitetlarini anglash va uni qabul qilish jarayonida bo'ladilar. Bunda ularning boshqa dunyolar, vaqt yoki realliklar bilan aloqalari muhim rol o'ynaydi. Hojiakbar Shayxovning "Tutash olamlar" asarida qahramonlar o'zlarining kimligini va nima uchun bu dunyoda ekanliklarini aniqlashga intiladi.

➤ **Psixologik travmalar va davolanish:**

✓ Qahramonlar ko'pincha og'ir psixologik travmalarni boshdan kechiradilar va ular bilan kurashishlari kerak bo'ladi. Bu jarayonlar orqali ular ko'pincha yangi ko'nikmalar yoki dunyoqarashlar orttiradilar. Shayxovning asarlarida qahramonlar ko'pincha o'z travmalarini yengib o'tish orqali kuchayadi.

➤ **Ijtimoiy muammolar va ruhiy holatlar:**

✓ Fantastik asarlarda ijtimoiy muammolar ko'pincha qahramonlar ruhiy holatlariga ta'sir qiladi. Bu asarlar orqali mualliflar jamiyatdagi muammolarni ruhiyat orqali yoritib, ularni hal qilish yo'llarini ko'rsatishga urinadilar. Ayzek Azimovning asarlarida sun'iy intellekt va robototexnika orqali jamiyatning kelajagi va inson psixologiyasi bilan bog'liq muammolar ko'tariladi.

Psixologizm shunday murakkab tushunchaki, u o'zida bevosita muallifning psixologiyasini ham qamrab oladi. Bu haqda Gi de Mopassan shunday yozgan edi: -Hissiyot organlari yordamida anglangan hayot haqidagi tushunchalarimiz, dunyoni tushunishimiz, bizning sezgilarimiz – bularning hammasining ma'lum bir qisminigina o'sha personajga, biz yashirin va sirli mohiyatlarini ochmoqchi bo'lgan qahramonlarga yuklaymiz. Shunday qilib, faqat o'zimizni hamma vaqt shoh, jallod, o'g'ri, monax ayol, qiz yoki bozor savdogari qiyofasida ko'rsatamiz, chunki biz o'z oldimizga shunday masalani qo'yamiz: -Agar men shoh, jallod, o'g'ri, monax ayol, qiz yoki bozor savdogari bo'lganimda, nima qilardim, nimani o'ylardim, qanday harakat qilardim"[7].



Adabiyotda psixologizmning asosiy vazifasi – qahramonning botiniy olamini chuqur, atroflicha yoritish, badiiy asarning makoniy hamda zamoniy chegaralarini keygashtirish, syujet va kompozitsiyaga ta'sir ko'rsatish hamda ruhiyat tasvirining barcha usullariga xos g'oyaviy-estetik imkoniyatlarni badiiy tasvirlashdan iborat. Jahon adabiyotida badiiy psixologizm hodisasi bochqichma-bosqich taraqqiy etgan, takomillashgan, yangi imkoniyatlar va mahorat hisobiga boyib borgan.

Haqiqatdan ham, yozuvchi asar qahramonlarini yaratishda ularning harakati, holati va intilishlarini avval tasavvur qiladi, so'ng qalb prizmasidan o'tkazib, aks ettiradi. Ayzek Azimov va Hojiakbar Shayxov ham ilm-fan inson baxti uchun xizmat qilishi kerak, degan g'oyani ilgari suradi. Kitobxon diqqat-e'tiborini inson hayotida ro'y beruvchi va jamiyatdagi g'ayrioddiy voqealar bilan bir qatorda inson tabiatidagi muqaddas va yuksak tuyg'ular hamda payti kelib, atrof-borliqni tanib bo'lmas darajada o'zgartirib yuborishga qodir, oddiy kundalik voqealarga qaratadi.

XULOSA

Umuman olganda, fantastik adabiyot qahramon ruhiyatini chuqurroq va murakkabroq tahlil qilish imkonini beradi. Bu janrning cheksiz imkoniyatlari orqali mualliflar inson psixologiyasining turli jihatlarini tadqiq qiladilar va o'quvchilarga yangi dunyoqarashlarni ochib beradilar. Demak, bundan anglaniladiki, psixologizm adabiyotning o'ziga xos qonuniy hodisasi bo'lib, yozuvchi ruhiyati ham asar tarkibida namoyon bo'ladi. Badiiy asarni o'qir ekan, kitobxon asar qahramoni kechinmalarini bevosita o'zida his etadi, qahramonning ruhiyatidagi o'zgarishlar, holatlar kitobxonga yuqadi. Zero, inson qalbi to'lig'icha tushuntirib bo'lmaydigan hilqatdir. Ba'zan badiiy asar qahramonining ruhiyati kitobxon ruhiyati bilan ham uyg'unlik kasb etishi mumkin.

Badiiy psixologizm tushunchasi bilan bir qatorda –psixologik tahlil, psixologik tasvir, qalb dialektikasi kabi terminlar ham keng qo'llanilib kelingan. XX asr adabiyotida psixologizm nafaqat qahramon ichki dunyosini yoritish vositasi, balki –syujetni belgilovchi va struktura hosil qiluvchi ta'sirchan omil sifatida ham o'z ahamiyatini saqlab qola oldi, qahramon ruhiyatini uning botiniy fursatlari orqali aniqlashning xronotopik usullari bot-bot o'z tasdig'ini topmoqda.[8]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Quronov D, Mamajonov Z, Seralieva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. –T.: Akadem nashr, 2013. – B. 48.
2. Abdullayeva D. “Adabiyotshunoslikda badiiy psixologizm tushunchasi va uning tarixi” Oriental Renaissance Innovative, educational, natural and social sciences Scientific Journal 2021. – B. 1.
3. Замятин Е. Психология творчества/ Публ. А.Н.Стрижева и литературная учеба. М., 1988. – №5. – С. 136–139.
4. Tulabaeva R. Xudoyberdi To'xtaboev romanlarida badiiy psixologizm: Filol.fan.falsafa. d-ri. ...diss. – Toshkent, 2019. – B. 17.
5. Shodiev N. Ruhiyat rassomi. – Toshkent, Fan, 1977. B.30.
6. Alimuhamedov A. Abdulla Qahhor hikoyalarida psixologik tasvir // O'zbek adabiy tanqidi (Antologiya).Toshkent, Turon-Iqbol, 2011. 544 b. B. 51-64.
7. Мопассан Ги де. Полн. собр. соч. В 12-ти томах, Т. 8. – М, 1958, С. 14-15.
8. Boboxonov M. Hozirgi o'zbek qissachiligida psixologizm. Filol.fan.nomz... diss. – Toshkent, 2012. –B.18.
9. Umurov H. Badiiy psixologizm va hozirgi o'zbek romanchiligi. Toshkent, Fan, 1983.

